



TALABALARDA XULQ OG'ISHINI OLDINI OLIHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SHARTLARI

Asilaxon Tojiddinovna

TAFU "Psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7931646>

ARTICLE INFO

Received: 01st April 2023

Accepted: 14th April 2023

Online: 25th April 2023

KEY WORDS

Devinatlik, xulq og'ishi,
profilaktika, ijtimoiy omil,
psixologik xizmat, yosh
davrlari, tarbiya jarayoni,
motivlar.

ABSTRACT

Bozor munosabatlarga asoslangan jamiyatda kundan kunga turli deviant va delikvent xulq-atvor namunalari yuzaga kela boshladi. Jamiyatdagi ma'naviy muhitning ta'sirini kuchaytirish, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish shaxs ijtimoiylashuvning tizimli amalga oshishiga ko'maklashadi. Jamiyatda mavjud ma'naviy axloqiy me'yorlar yoshlarimizni jamiyatda o'z o'rinlarini topishlariga, intiluvchan, vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Mustaqil O'zbekistonimizda har qanday mafkuraviy va g'oyaviy to'siqlarning olib tashlanganligi va barcha soha olimlariga to'la ijodiy erkinlik berilganligi respublikamizda deviant xulq-atvorning barcha turlarini ilmiy o'rganish imkoniyatini berdi. Maqolada yoshlar, ayniqsa, talabalar orasida deviant xulq-atvor psixoprofilaktikasini tashkil etishning psixologik xususiyatlari tadqiqot natijalarini sharhlash orqali keltirilgan.

KIRISH (INTRODUCTION).

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng jamiyatda islohotlar, yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlar jamiyatda mavjud eski muvozanatlarning o'zgarishi, yangi me'yorlarning kirib kelishiga asos bo'ladi. Dunyo miqyosidagi global ijtimoiy o'zgaruvchanlikning kuchayishi muhtojlik, jinoyatchilik, millatlar o'rtasidagi nizolar, ishsizlik, kabi dolzarb ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Dunyo mamlakatlarida demografik inqiroz, oila inqirozi, alkogolizm, zo'ravonlik, o'zaro munosabatlardagi ziddiyatlar, yoshlarning qarovsizligi, jinoyatchilik va boshqa ijtimoiy xatarli hodisalarda shaklida namoyon bo'lmoqda. Yoshlarga tarbiya berishda an'analar, xususan, diniy an'analarning o'rni beqiyosdir. Islom dini shariatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda asosiy masala insonni axloqiy kamolotga yetkazish hisoblanadi. Payg'ambarimiz (s.a.v) o'z hadisi shariflarida "Mo'minlarning afzali xulq-atvori yaxshilaridir" deb, ta'kidlaganlar. Ushbu hadis har qanday musulmon kishini chiroyli xulqli, tarbiyali bo'lishga, qolaversa o'z farzandlarini shunday tarbiyalashga chorlaydi.



Hozirgi kunda yoshlar tarbiyasiga yetarli ahamiyat berilmasligi, ularni tarbiyalashda avloddan avlodga o'tib kelayotgan tarbiya usullaridan foydalanmaslik bu borada ko'plab qiyinchiliklar va salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu masalaning yechimi sifatida ta'lim-tarbiya jarayonida ota-bobolarimiz qo'llab kelgan din omili, undagi tarbiyaviy masalalarni amalda qo'llash zarurati ortib bormoqda. Mustaqil O'zbekistonimizda har qanday mafkuraviy va g'oyaviy to'siqlarning olib tashlanganligi va barcha soha olimlariga to'la ijodiy erkinlik berilganligi respublikamizda deviant xulq-atvorning barcha turlarini ilmiy o'rganish imkoniyatini berdi.

Ma'lumki, maxsus adabiyotlarda "og'ishgan xulq" atamasi ko'pincha deviant axloq (deviatio – lotin tilida "og'ishgan") sinonimi bilan almashtiriladi. Kelgusida biz o'zaro bir-birining o'rnini to'ldiruvchi sifatida har ikkala atamani ya'ni, "og'ishgan", "deviant" so'zlarini qo'llaymiz. Bunda birinchi atama ilmiy, aniq va o'rganilgan bo'lgani sababli ko'proq afzal ko'riladi. O'rganilayotgan tushunchaning murakkabligi hamda, uning fanlararo xarakterga ega ekanligini ta'kidlash o'rinlidir. Hozirgi vaqtda atamadan ikki asosiy mazmunda foydalaniladi. Deviant xulq, birinchidan, "rasman o'rnatilgan yoki haqiqatda ushbu jamiyatda yuzaga kelgan me'yorlarga mos kelmaydigan muomala va inson harakati" ma'nosida psixologiya, pedagogika va psixiatriyaning predmeti sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, "Inson faoliyatining ommaviy va mustahkam shakllarga nisbatan ifodalanuvchi va rasman o'rnatilgan yoki ushbu jamiyatda haqiqatda mavjud bo'lgan me'yorlar va umidlarga mos tushuvchi ijtimoiy ko'rinish" – ma'nosida u sotsiologiya, huquq, ijtimoiy psixologiya predmeti hisoblanadi [1] Shaxs xulq-atvoridagi buzilish ijtimoiy muhitning o'ziga xos jihatlari, ya'ni sog'lom va nosog'lomligiga, individning fe'l-atvori, xarakter xususiyatlari, ijtimoiy me'yorlar va shaxs o'rtasidagi ziddiyatlar hamda ularning zo'rayib borishi kabilarga bog'liq bo'ladi.

Shaxsning dunyoqarashi, ya'ni qadriyatlar oriyentatsiyasi, ijtimoiylashuvi va individual hissiyotlarining ijobiy tarzda shakllanishi va namoyon bo'lishi uni va insoniyat uchun foydali bo'lgan xatti-harakatlarga undaydi. Shuni unutmash kerakki, tashqi muhit yoki ijtimoiy voqea-hodisalar har doim ham xulq og'ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishi uchun asos bo'lib xizmat qilmaydi. Qachonki, ijtimoiy voqea-hodisalar va individ o'rtasida qarama-qarshilik va ziddiyatlar yuzaga kelsa, jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy me'yorlar individ tomonidan qabul qilinmasa hamda ijtimoiy muhitda xulq og'ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishi uchun yetarli shart-sharoit mavjud bo'lsa, xulq og'ishi va tarbiya buzilishi kelib chiqishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (METHODS).

Bulardan birinchisi, shaxs, ijtimoiy guruh, umuman jamiyat manfaatlariga yetkazilgan zarar darajasiga, ikkinchisi esa, buzilgan normalar turiga qarab, deviant xulq-atvorning quyidagi asosiy turlarini ajratish imkonini beradi [2]:

1. Faqatgina shaxsning o'ziga zarar yetkazadigan va umuman qabul qilingan ijtimoiy va axloqiy me'yorlarga mos kelmaydigan buzg'unchi xatti-harakatlar - konformizm, mazoxizm va boshqalar.
2. Shaxsga va ijtimoiy jamoalarga (oilal, do'stlar guruhi, qo'shnilar) zarar yetkazadigan va alkogolizm, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish va h.k.larda namoyon bo'ladigan ijtimoiy xatti-harakatlar.



3. Ham axloqiy, ham huquqiy normalarni buzadigan va talonchilik, qotillik va boshqa jinoyatlar bilan ifodalanadigan delinkvent (noqonuniy) xatti-harakatlar. Huquqbuzarlik odatda shaxsda maktab davri “tengdoshlari” guruhiga qo‘shilishdan boshlanadi. Buning ortidan mayda bezorilik, yosh va o‘zidan kuchsizlarni jazolash, bolalardan kichik cho‘ntak pullarini olish, velosiped va motosikllarni o‘g‘irlash (haydash maqsadida) kuzatiladi. Jamoatchilik orasida firibgarlik va kichik spekulativ harakatlar bu yosh davrida kamroq uchraydi. Bunga oz miqdordagi pulni “uydan o‘g‘irlash” larni ham qo‘shish mumkin. Voyaga yetmagan yoshdagi bu harakatlar jinoyat kodeksiga muvofiq jazo uchun asos bo‘lmaydi. Biroq, o‘spirinlar va yoshlarda bunday harakatlarning oqibati ularni huquqbuzarga aylantirishi va shu bilan birga ularning faoliyati uchun katta xavf tug‘diradi.

Deviant xulq-atvorning rivojlanish bosqichlari quyidagicha ajratilgan [3]:

- aksariyat bolalar va o‘spirinlarda epizodik ravishda kuzatiladigan, masxarabozlik, buzuqlik, itoatsizlik, bezovtalik, qaysarlik va boshqalar bilan bog‘liq xatti-harakatlar;
- atrofdagilarni, o‘qituvchilarni, ota-onalarni ozmi-ko‘pmi qattiq qoralashga sabab bo‘ladigan senzurali xatti-harakatlar (intizomning epizodik buzilishi, qo‘pollik, beparvolik, aldamchilik, vijdotsizlik holatlari);
- muntazam yoki odatiy holga aylangan axloqiy jihatdan salbiy harakatlar (vijdotsizlik, hiylanayrang, yolg‘on, ikkiyuzlamachilik, xudbinlik, egosentrizm, ziddiyat, tajovuzkorlik, o‘g‘irlik va boshqalar)ga asoslangan deviant xatti-harakatlar;
- jinoiy va destruktiv xatti-harakatlarning boshlanishini olib boruvchi jinoyatga qadar bo‘lgan xatti-harakatlar - odamlarning xatti-harakatlari va munosabatlarini tartibga soluvchi epizodik ravishda qasddan buzilgan normalar va talablarning buzilishi: bezorilik, kaltaklash, tovlamachilik, alkogol ichimliklar ichish, intizomni buzish va umume’tirof etilgan xulq-atvor qoidalari va boshqalarga rioya etmaslik;
- turli xil huquqbuzarliklar va jinoyatlar asosida vujudga kelgan noqonuniy yoki jinoiy xatti-harakatlar.

Ushbu an’anaviy bosqichlar odatda bir-birini almashtirib, rivojlanishning ma’lum bir yo‘nalishini tashkil etadi. Albatta, ba’zi hollarda ular bir-biriga bog‘liq bo‘lmasligi mumkin. Masalan, noqonuniy xatti-harakatlar to‘satdan paydo bo‘lishi mumkin, bundan oldin hech qanday noqonuniy harakat qilmagan o‘spirin yoki yosh shaxsning to‘satdan qonunlarni buzish hollari. Bu tashqi tomondan kuchli ta’sirlanish (o‘rtoqlar, tanishlar, moda), vaziyatlarning tasodifiyligi, psixologik stress va boshqa yuqori ta’sir ko‘rsatadigan patogen omillarning natijasi bo‘lishi mumkin. Ammo aksariyat hollarda bu uzoq muddatli noqulay omillarning natijasidir, masalan, muntazam ravishda akademik muvaffaqiyatsizlik, oilada, maktab jamoasidan begonalashish, psixologik bezovtalik va boshqalar. Bu kabi omillar psixologik beqarorlikka olib keladi, shaxsning qadriyatlar yo‘nalishini buzadi, atrofni o‘rab turgan mikromuhitda shaxsning xulq-atvorida og‘ishlar paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ladi [4].

Yoshlarning xatti-harakatlarini shaxsning ma’lum bir holatini, uning rivojlanishining ma’lum bir tendensiyasini ko‘rsatadigan hodisa sifatida ko‘rib chiqqan holda, psixologlar xulq-atvorning bir xil tashqi o‘xshash xususiyatlari shaxsning psixikasida sodir bo‘ladigan turli xil jarayonlarni va aksincha bo‘lishi mumkinligi, ya’ni bir xil mikromuhit hodisalarining shaxs subyektiv dunyosiga turlicha ta’sir qilinishini tushunishi kerak. Boshqacha qilib aytganda,



xulq-atvorning tashqi xususiyatlarini ko'rish orqali, ularni keltirib chiqaradigan sabablarni ham o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Inson xulq-atvorining shakllanishiga ta'sir qiluvchi uchta asosiy omil guruhi mavjud: biologik, ijtimoiy va psixologik. Zamonaviy psixologiya xulq-atvorni makon va zamonda rivojlanib boruvchi jarayon deb biladi. Ushbu jarayonning asosiy bosqichlari: ehtiyojni realizatsiya qilish, motivning paydo bo'lishi va shakllanishi, maqsadni ishlab chiqish, unga erishish yo'llarini tanlash, rejalashtirilgan harakatlarni, kerakli va amalga oshuvchi natijalarni bashorat qilish, qarorlar qabul qilish, xatti-harakatlarni nazorat qilish va tuzatishdir. Shaxs psixologiyasi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – shaxs xulq-atvori va harakatlari ortida nima yotganligini aniqlashdir. Har qaysi shaxsning ichki olami mavjud. O'zining shaxsiy tasavvurlari, emotsional reaksiyalari, his-kechinmalari va aniq harakat obrazlariga shaxs doim ega bo'lib kelgan. Bu kabi xatti-harakatlar qanday qonunlar asosida amalga oshiriladi? Bu kabi savollarga javob shaxsning ichki olamini u yoki bu tarafdin yoritilishiga bog'liqdir [5].

Har qanday shaxs to'g'risidagi nazariyalar g'oyalar sistemasi bo'lib, xulq-atvorini qanday boshqarishi, o'z ichki olamida nimalar sodir bo'lishi va uni xulq-atvorida qanday namoyon bo'lish mexanizmlarini tushuntirishga intiladi. Shaxs nazariyalari – empirik dalillarga asoslanib shaxs tabiati haqida isbotlangan xulosalar chiqaradi. Nazariyalar faqatgina o'tmish va hozirdagi shaxs xulq-atvori haqidagi savollarga javob berib qolmasdan, balki kelajakdagi shaxs xatti-harakatlari sababini keltirib chiqaruvchi omillarga ham e'tibor berishi lozim. Shunday qilib, shaxs nazariyalari shaxsning xulq-atvorini tavsiflaydi, tushuntiradi va oldindan bashorat qiladi. Agar shaxs nazariyalari quyidagi vazifalarni bajarmasa hamjamiyat tomonidan ishonchsiz ma'lumotlar bazasi sifatida rad etiladi.

Yana shunisi ahamiyatliki, har qaysi shaxs nazariyasi – murakkab tuzilmaga ega bo'lgan shaxs strukturasi soddalashtirilgan modelidir. Shaxs nazariyalardagi farqlarga qaramasdan ulardagi asosiy komponentlar shaxs tabiati to'g'risidagi jiddiy savollarga javob topishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Quyida shaxs nazariyalarida uchraydigan umumiy savollar saralanadi [6]:

- *Shaxs tuzilishi masalasi*– barcha shaxs nazariyalari stabil, o'zgarmaydigan shaxs xulq-atvoridagi aspektlarni va ular orasidagi munosabatlar qandayligi haqidagi savollarga javob topishga intiladi.

- *Motivatsiya masalasi*. Psixologiya nimaga insonlar oldin qanday bo'lsa, hozir ham shunday xatti-harakatlar qilishini, harakatlarini takrorlash sabablarini tushuntirishga intiladi. Motivatsiya haqidagi savol esa shaxs xulqidagi o'zgaruvchan va dinamik xususiyatlarni qamrab oladi, masalan, yosh kattalashgani sari qadriyatlar sistemasining o'zgarishi kabi.

- *Rivojlanish masalasi*. Shaxs rivojlanishiga turli xil faktorlar ta'sir ko'rsatadi: irsiyat, oila, sotsial muhit. Bunda ularning shaxs kamolotidagi o'rni qanday? Bu jarayonning qonuniyatlariga nimalar kiradi? Shu kabi savollarga javob topmay turib shaxni to'laqlik anglash mumkin emas.

- *Psixopatologiya masalasi*. Normal qaysi jihatlari bilan patologiyadan ajralib turadi? Ularni chegarasi qayerda? Qanday sabablar va qanday rivojlanish mexanizmi u yoki bu patologik holatlarni yuzaga keltiradi?



- *Psixologik salomatlik bilan bog'liq muammolar masalasi.* Har qaysi nazariyalar shaxs salomatligini baholash mezonini kiritishi kerak.
- *Shaxsga terapevtik ta'sir ko'rsatish masalasi.* Insonlarga turli xil psixik og'ishlarda qanday yordam ko'rsatish mumkin?

Yuqoridagi sanab o'tilgan masalalarning aksariyati nafaqat shaxs psixologiyasi o'rganishi kerak bo'lgan, balki deviant xulq-atvor nuqtai nazaridan ham ko'rilishi kerak bo'lgan masalalar ekanligi ayon bo'lmoqda.

V.D.Mendelevichning fikriga ko'ra, deviant xulq-atvor psixologiyasi "turli xil normalardan chetga chiqadigan xatti-harakatlarning paydo bo'lishi, shakllanishi, dinamikasi va natijalarini, shuningdek ularni tuzatish va davolash usullarini o'rganadigan ilmiy bilimlarning fanlararo sohasidir". Deviant xulq-atvor psixologiyasining predmeti - bu turli me'yorlardan, ruhiy holatlardan, shuningdek shaxsni rivojlantirishdan chetga chiqadigan, odamning jamiyatdagi nomuvofiqliklarga yoki o'zini-o'zi namoyon etishining buzilishiga olib keladigan, rivojlanmagan xatti-harakatlar odatlari tufayli o'zini rad etish bilan bog'liq bo'lgan vaziyatli reaksiyalardir. Turli xil psixologik maktablarning vakillari deviant xulq-atvor bilan bog'liq muammolarni hal qilishda turlicha yondashadilar va bundan tashqari ular "deviant (og'ishgan) xulq-atvor" tushunchasini turli yo'llar bilan izohlaydilar [7].

Deviatsiyalarni ilmiy o'rganish psixologiya, kriminologiya, psixopatologiya, sotsiologiyada olib boriladi. O'zgarishlar davri, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat deviant, g'ayritabiiy xatti-harakatlarni tuzatish bilan bog'liq muammolarni keskin ravishda kuchaytirdi. Jamiyatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar xatti-harakatlardagi norma to'g'risida ilgari mavjud bo'lgan g'oyalarni amalda yo'q qildi. Aholining katta qismining deviant xatti-harakatlari bugungi kunda mamlakat uchun eng xavfli destruktiv tendensiyalarni o'zida mujassam etgan. Biroq, mavjud profilaktika amaliyoti yoshlarning deviant xatti-harakatlarining oldini olish muammosini to'liq hal etmaydi. Bu yoshlarning deviant xulq-atvori muammosini o'rganishning dolzarbligini belgilaydi. Shaxs xulq-atvoridagi buzilish ijtimoiy muhitning o'ziga xos jihatlari, ya'ni sog'lom va nosog'lomligiga, individning fe'l-atvori, xarakter xususiyatlari, ijtimoiy me'yorlar va shaxs o'rtasidagi ziddiyatlar hamda ularning zo'rayib borishi kabilarga bog'liq bo'ladi [8].

MUHOKAMA (DISCUSSION).

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib pozitivistik maktab shakllanishi bilan, jinoyatchilikni ham sababiylikda o'rganuvchi ta'limotlar paydo bo'la boshladi. O'z joniga qasd qilish darajasi ko'pincha jamiyatning holatiga bog'liq holda kechadi va u jamiyatning sotsial, iqtisodiy va siyosiy holatining muhim indikatorlaridan biri sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham E.Dyurkgeymn (1858-1917) fikricha, o'z joniga qasd qilish ruhiy kulfatlar natijasida ro'y beradi. U o'z vatani Fransiyadagi rasmiy xronikalarni tahlil etish asnosida shaxslarning ba'zi toifalari uchun o'z hayotidan kechish — boshqalarga nisbatan ajralib turadigan o'ziga xos hodisa ekanligini aniqladi. Shuningdek, E.Dyurkgeym o'z izlanishlarida protestantlar, o'ziga to'q odamlar, hali nikohdan o'tmaganlar o'rtasida ayollar, katoliklar, yahudiylar, kambag'allar va oilali kishilarga nisbatan o'z joniga qasd qilish ancha ko'proq ro'y berishini ochib berdi [9]. U sotsial integratsiya iborasidagi farqlanishlar sabablarini tushuntirib berish asnosida mustahkam sotsial aloqalarga ega bo'lgan odamlar o'rtasida individualizmga berilish kuchli



bo'lgan odamlarga nisbatan o'z joniga qasd qilishning juda ham kamligini aniqladi. E.Dyurkgeym o'rgangan jamiyatda erkaklar ayollarga nisbatan ustunlik qilib, ular ayollarga nisbatan ko'proq erkinlikka ega edi. Lekin, erkinlik o'zining ochiq-oydin ko'rinib turgan afzalliklarga ega bo'lishiga qaramasdan sotsial yakkalanib qolishga olib kelishi, uning oqibatida o'z joniga qasd qilishlarning ko'payishiga olib kelishi kuzatilgan.

E.Dyurkgeymning asosida sotsiologik mezonlar yotgan tasniflashiga binoan xudbinlikdan va alturuistik tuyg'ulardan kelib chiqadigan o'z joniga qasd qilish shakllari ham mavjud. Xudbinlikdan kelib chiqadigan o'z joniga qasd qilish ko'pincha shaxsiy va oilaviy hayotdagi omadsizlik bilan bog'liqdir. Shaxsning ichida o'zining ko'plab muammolarining yig'ilib qolishi uni to'liq ravishda individullashishiga, faqat o'z xususiy istaklarini qondirishga intilishiga olib keladi. Istaklar imkoniyatlarga to'g'ri kelmay qolgan paytda hayot quvonchlari va jozibasi yo'qoladi, natijada unda o'z joniga qasd qilish vasvasasi paydo bo'ladi. Xudbinlik va alturuistik asosida o'z joniga qasd qilishlar butunlay bir-biriga qarama-qarshi mazmunga egadir. Birinchisining asosida individuallashish yotsa, ikkinchisi o'zini- o'zi shaxs sifatida e'tirof etmay qolish tuyg'usi bilan bog'liqdir [10].


Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R.Merton ishlab chiqqan ta'limot sotsiologiyada yetakchi o'rin tutadi. E.Dyurkgeymning anomiya g'oyasini rivojlantirib, Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi: "Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir". Jumladan, italiyalik psixiatr Ch.Lombrozo Italiya qamoqxonalariidagi 14 ming maxbus ustida tekshirish olib borib, "jinoyatchilar tug'ma bo'lishadi" degan xulosaga kelishadi [11]. Uning shogirdi E.Ferri jinoyatchilik sotsiologiyasi asarida ushbu omilga qo'shimcha ravishda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillarni ham ko'rsatadi. Keyinchalik ushbu ta'limotlar turli tanqidlar uchragan bo'lsada, hozirgi kungacha ham G'arb sotsiologiyasining ba'zi namoyondalari ushbu ta'limotning u yoki bu yo'nalishlarini rivojlantirib kelishmoqda. Amerikalik sotsiolog R.Merton bunga muvofiq ravishda jamiyatga moslashish deb hisoblangan xatti-harakat turini ajratib ko'rsatadi. Merton buni amerikaliklarning boylikka ega bo'lishi maqsadlari muammosini tahlil qilish orqali tushuntiradi. Uning fikricha, xatti-harakatning quyidagi turlari mavjud [12]:

- 1) konformlik – madaniy maqsadlar va vositalarga muvofiqlik, ya'ni boylikka ega bo'lish uchun ishlash, o'qish, biznes qilish yoki meros olish kerak;
- 2) innovatsiya – maqsadlarni tan oladi, lekin shu maqsadga erishishning ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadigan vositalarini inkor etadi (narkotik sotish, o'g'rilik kabilar);
- 3) ritualizm – maqsadni inkor etib, shu maqsadga erishishning jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan vositalarini ma'qullaydi (byurokratizm, rasmiylikni mutlaqlashtirish);
- 4) isyon – hukmron maqsad va vositalardan begonalashuv hamda yangi maqsad va vositalarning shakllanishini nazarda tutadi. Ijtimoiy me'yorlarning buzilishi jiddiy, nojiddiy, ongli yoki anglanmagan holda bo'lishi mumkin. Qonunga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakat toifasiga kiruvchi ongli yoki anglab yetilmagan barcha jiddiy xatti-harakatlar delikvent deyiladi. Deviant va delikvent xatti-harakat quyidagicha farqlanadi: deviant xatti-harakat nisbiy, delikvent xatti-harakat mutlaq bo'ladi.

E.Saterlendning differensial, katta o'rin tutuvchi ta'limotlardan biri aloqalar ta'limotidir. Bunga ko'ra, har qanday xulq-atvorga, shu jumladan me'yor buzuvchi xulq-atvor ham o'rganiladi, ya'ni mavjud jamiyat a'zolari tomonidan mazkur xulq-atvor me'yorlari boshqalarga o'rgatiladi. Jamiyat maqsadlari va vositalariga nisbatan munosabatlarning bu kabi turlari deviant xulq uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Deviant xulqning bu kabi manbalari qatorida, shuningdek, jamiyatning sotsial jihatdan buzilishi sifatida qadriyatlarning barbod bo'lib borayotganligini ham ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, deviant xulq turli submadaniyatlar, ayniqsa jinoiy xulq submadaniyatlari ta'sirida ham paydo bo'lishi mumkin. Jinoiy guruhlar (ko'cha jinoiy to'dalari, narkotik moddalar savdogarlari, reketirlar va boshq.) bilan aloqalar ularning "me'yorlari" va "qadriyatlari"ni tarqalishiga, deviant xulqni ko'payishiga olib keladi. Bu nazariyaga muvofiq deviantlikning manbai jamiyatning adolatsiz tarzda tuzilgani uchun uni tuzatish, ya'ni sotsial adolatsizlikka barham berish lozimligi g'oyasi ilgari suriladi. AQSH shifokori va psixologi Uilyam Sheldon deviantlik bilan tana va gavdaning tuzilishi o'rtasidagi bog'liqliklarga doir tadqiqotlar olib bordi [13]. Bu sohada psixologik talqinlar tarafdorlari deviantlikni psixologik xislatlar bilan bog'lashga urindi.

NATIJALAR (RESULTS).

Biz tomonimizdan yoshlar o'rtasida o'tkazilgan "Yoshlarda xulq og'ishini oldini olish omillari sifatida nimalarni nazarda tutasiz?" nomli ijtimoiy-psixologik so'rovnomamizda Oliy ta'lim muassasalari talabalari, Probatsiya xizmati nazoratidagi xulqi og'ishgan yoshlar faol ishtirok etdi. Mazkur ijtimoiy-psixologik so'rovnoma 20 ta savoldan tuzilgan bo'lib ularning har biriga respondentlarimiz tomonidan berilgan javoblar quyidagi rasmlarda o'z ifodasini topadi. Respondentlarning asosiy qismini 21-24 yosh oralig'idagi yoshlar tashkil etdi.




1. rasm. "Kishini axloqsizlikdan tiya oladigan asosiy omil nima?" savoliga berilgan javoblar.

"Kishini axloqsizlikdan tiya oladigan asosiy omil nima?" deb aytilgan savolga berilgan mulohazalar ichidan 69.7 % respondentimiz "diniy tarbiya va uning asosida gunoh ishlarni qilishdan qo'rqish" degan mulohazani tanlagan bo'lishsa, 30.3 % respondentimiz "milliy axloq-odob va ma'naviylikka tayangan oilaviy tarbiya" javobini tanlashgan (1 rasm). Bundan ko'rinib turibdiki, shaxsni axloqsizlikdan qaytaradigan omil sifatida nafaqat oilaviy tarbiya, balki diniy tarbiyaning o'rni hozirgi kun uyushgan yoshlari nigohida juda balandni tashkil etadi. Xulqi og'ishgan yoshlarda esa uyushgan yoshlarga nisbatan berilgan javoblar o'zgacha tus oldi. Ularning 29.5 % i shaxsni axloqsizlikdan tiya oladigan omil sifatida "mahalla va



jamoatchilik oldidagi sharmandachilikdan qo'rqish" mulozahasini tanlashdi, bu esa, o'z navbatida bunday kategoriyadagi yoshlar nazdida sotsial me'yor, jamoatchilik nazoratining mavjudligi, xulq og'ishining ko'rinishlarini yuzaga chiqarishda asosiy to'siqlardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin, degan tasavvurni uyg'otadi. Uyushgan yoshlardan farqli o'laroq, xulqi og'ishgan yoshlar "diniy tarbiya va uning asosida gunoh ishlarni qilishdan qo'rqish" mulohazasini tanlash ko'rsatkichi kamroqni tashkil etdi, ya'ni 35.6 %. Bunda ularning diniy tarbiya mohiyatini yaxshi tushunmaganliklari, din omilining har qanday xulq og'ishini bartaraf etishi mumkinligi to'g'risidagi tasavvurlari yetishmaganidan, deb ham hisoblasa bo'ladi. Bu esa, bunday toifadagi yoshlar bilan psixoprofilaktik tadbirlarni tashkil etishda muqaddas dinimiz keltirib o'tilgan oyat, hadis namunalarida foydalanishni taqozo qiladi. "Milliy axloq-odob va ma'naviylikka tayangan oilaviy tarbiya" javobini tanlash ko'rsatkichi og'ishgan xulqli yoshlarimiz bo'yicha 34.9 % ni tashkil etmoqda. Bundan ularning oiladagi axloq, sog'lom oilaviy tarbiya muhitining tashkil etilishi namunali xulqni shakllantiruvchi, turli salbiy xulq og'ishi ko'rinishlari (jinoyatchilik, alkogolizm, giyohvandlik) ni oldini oluvchi muhim komponentlardan biri sifatida tanlanmoqda.


"Jinoyatchilik, giyohvandlik, alkogolizm, fohishalik, poraxo'rlik kabi muammolarni bartaraf qilishda islom axloqi muhimmi?" savoliga 97 % respondentlarimiz ijobiy javob berishdi, 3 % respondentlarimiz esa salbiy javob qaytarishdi. Xulqi og'ishgan yoshlarimizda esa vaziyat boshqacharoq tus oldi. Ularning ijobiy javoblari sog'lom xulqli yoshlarga nisbatan 71.5 % ni tashkil etsa, salbiy javoblari 28.5 % ni tashkil etdi (6 ilovaga q). Bundan ko'rinib turibdiki, yoshlar islom dini ahkomlaridan xabardorlik, islomiy xulqqa egalik bu kabi illatlarni bartaraf etishda muhim omil bo'ladi, deb biladilar. Diniy qadriyatlardan boxabarlik, ularni amaliy hayot faoliyatida qo'llash orqali salbiy holatlarni oldini olish mumkinligi bu savollarga berilgan javoblardan ham a'yon bo'ladi.



2. rasm. "Salbiy illatlarni oldini olishda islom axloqi muhimligi sizningcha qaysi mulohazalarda ko'rinadi?" savoliga javoblar.


"Salbiy illatlarni oldini olishda islom axloqi muhimligi sizningcha qaysi mulohazalarda ko'rinadi?" savoliga respondentlarimizning 42.80 % i "Islom dinida yuqorida aytib o'tilgan illatlarni sodir etish og'ir gunoh sifatida qoralanadi" degan mulohazalarni tanlashgan bo'lsa, 51.50 % i respondentlarimiz "Dinimiz kishilarni halol va pok yurishga chaqirishini" e'tirof etishgan, 5.70 % respondentlarimiz esa "Ajdodlarimiz diniy e'tiqod talablariga amal qilganliklari tufayli bunday illatlardan yiroq bo'lishgan" mulohazalarini tanlashdi. Bu esa o'z

navbatida, yoshlar nazdida diniy qonun-qoidalaridan xabardorlik, Islom dinining bu kabi salbiy illatlardan yiroq yurishga chaqirishi deviant xulq-atvorni oldini olishda samarali vosita sifatida qaralishiga asos qilib ko'rsatilmoqda.



3. rasm. "Sizningcha muqaddas dinimizda qanday xulq buzilishlari qattiq qoralanadi?" savoliga javoblar.


"Sizningcha muqaddas dinimizda qanday xulq buzilishlari qattiq qoralanadi?" savoliga 84.8 % yoshlar "har qanday xulq og'ishi qoralanadi" javobini, 2.1 % "alkogolizm va chekish"ni, 9.1 % "suitsid"ni, 4 % "jinoyatchilik" javobini tanlashdi. Bu natijalar esa yoshlar tasavvurida dinimizda har qaysi jamiyatga, shaxsga zarar keltiruvchi illat xulq buzilishi ekanligini shakllantirishni yanada kuchaytirish lozimligini ko'rsatmoqda. Aksariyat yoshlar oddiy ijtimoiy normani buzishni xulq og'ishi sifatida baholamasliklari quyidagi natijalardan ham ma'lum bo'lmoqda. Xulqi og'ishgan yoshlar fikri bo'yicha faqat Qonun bilan cheklangan va taqiqlangan hodisalargina xulq og'ishi sifatida qabul qilinmoqda. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, xulqi og'ishgan yoshlarda muqaddas dinimizning ahkomlarini to'g'ri tushuntirish, xulq buzilishi, jinoyatni oldini olish bo'yicha diniy idora vakillari bilan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish samaradorligini oshirish talab etiladi.



4 rasm. "Sizningcha yoshlarda xulq og'ishini oldini olish uchun qanday vositalardan foydalansa samaraliroq?" savoliga javoblar.

Navbatdagi savolimizga respondentlarimizning javobi quyidagicha shaklni oldi. Natijalardan ham ko'rinib turibdiki, xulq og'ishi oldini olishda xulqi og'gan yoshlar asosiy omillar biri sifatida "OAV da behayo jangari filmlarni ko'rmaslik" javobini tanlashgan bo'lsa

38.9 %, sog'lom uyushgan yoshlar esa, "oilada, ta'lim muassasalarida kompleksli chora-tadbirlar samaradorligi kuchaytirish" mulohazasini tanlashdi 57.6 %. E'tiborli jihati quyidagi berilgan javoblarda ko'rinadi, xulqi og'ishgan yoshlar "oilaviy muhitda diniy va dunyoviy tarbiyani birdek berish" mulohazasini uyushgan yoshlarga nisbatan ko'proq tanlashgan 15.4 %. Bu esa bizda, xulqi og'ishgan yoshlar o'zlaridagi xulq og'ish sabablarini yoki bu kabi salbiy hodisalarni oldini olishda oiladagi diniy va dunyoviy tarbiyaning birdek berilishi muhimligini alohida qayd etmoqda, degan tasavvur uyg'otadi. "Xulq og'ishining asosiy sababi diniy bilimsizlik deb hisoblaysizmi?" savoliga xulqi og'ishgan yoshlarning 21.1% i "yo'q" javobini, 48.9 % "ha" degan variantni, 30 % esa, "bilmayman" javobini tanladi (6 ilova 6.5. rasmga q). Bundan ko'rinib turibdiki, ko'pchilik xulqi og'ishgan yoshlar nazdida xulq og'ishining sababi diniy bilimsizlik emas, boshqa faktorlar ham bu kabi salbiy hodisalarga ta'sir qiladi. Bu esa, kelgusida tadqiqotchilardan boshqa faktorlarni ham inobatga olgan holda, bu ijtimoiy-psixologik hodisaga yondashishlarini taqozo etadi. Uyushgan yoshlar nazdida esa, javoblar keskin farq qiladi, ularning 66.7 % qismi xulq og'ishini asosiy sababi sifatida "diniy bilimsizlik" deb bilishmoqda, bu diniy bilimlardan xabardorlik, oilada diniy va dunyoviy tarbiyaning uyg'un berilishi, ulg'ayotgan avlodda har qanday xulq og'ishiga qarshi kuchli immunitet uyg'otadi. Diniy bilimlardan bexabarlik esa, shaxsda har qanday og'ish turlariga qiziqib ko'rishga sabab bo'lishi, salbiy xislatlarning shaxs xususiyatida paydo bo'lishi, uning muntazam davom etib, shaxs barkamolligiga, uning taraqqiyotida ulkan xavf-xatarlarni tug'dirish ko'rsatkichini oshirishi mumkin.



5. rasm. "Sizningcha qanday xarakterdagi yoshlar xulq og'ishiga moyil bo'ladi?" savoliga javoblar.

Ijtimoiy-psixologik so'rovnomamizdan o'rin olgan navbatdagi "Sizningcha qanday xarakterdagi yoshlar xulq og'ishiga moyil bo'ladi?" savolga repondentlarimizning javoblari quyidagicha tus oldi, xulqi og'ishdan yoshlarning bergan javoblariga qaraganda xulq og'ishiga ko'proq "ehtiyotlari vaqtida qondirilmagan, sabrsiz xislatlarga ega shaxslar" moyil bo'lsa (43.2 %), uyushgan yoshlarning aksariyati 36.4 % i "o'ziga past baho beradigan, imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaydigan shaxslar"da xulq buzilishi kelib chiqish hollari ko'proq kuzatiladi, degan mulohazani tanlashgan. Xarakter xususiyatlaridan esa, xulqi og'ishgan yoshlarda "serjahl, agressiv" javobiga berilgan ko'rsatkichlar 40 % ni, uyushgan yoshlarda esa, 27.3 % ni tashkil etmoqda. Olingan natijalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, xulqi og'ishgan yoshlarning ko'pchiligida xulq buzilishlarini kelib chiqishiga, ijtimoiy me'yorlarni buzishida



o'z ehtiyojlarning ma'lum miqdorda qondirilmaganligini, shuningdek, "qondirilmagan ehtiyojlarini boshqa vositalardan foydalangan holda qondirishga urinishlari" ham sabab bo'ladi, degan xulosa keladi. Uyushgan yoshlarning bu boradagi bergan javoblariga ko'ra esa, "o'z imkoniyatlarini past baholagan va o'ziga ishonmagan shaxslar"da maqsadlarini ro'yobga chiqarishda ichki kuch yetishmasligi, ikkilanish kabi holatlarning ko'p takrorlanishi oqibatida xulq buzilishi hollari kuzatilishi ehtimoli oshadi. Olingan natijalarga asoslanib esa, xulq buzilishini oldini olishda shaxsdagi psixologik faktorlarni ham inobatga olish, korreksiya ishlarni takomillashtirish zarur, degan tavsiyalarni ishlab chiqish o'rinlidir. Bu natijalardagi farq yuqori ekanligini hisobga olgan holda yoshlarda xulq og'ishini keltirib chiqarishda internetdan olingan manbalarning ahamiyati katta ekanligini, shuningdek, diniy bilim olishga ehtiyoj yuqoriligidan yoshlarda istagan internet saytiga murojaat qilish hollari ularda noto'g'ri diniy tasavvur shakllanishiga olib kelishi ehtimolining oshishiga ham sabab bo'lishi a'yon bo'ldi. Bunda xoh xulqi og'ishgan, xoh uyushgan yoshlar kategoriyasi bo'lsin, ularda to'g'ri diniy tasavvur, xolis diniy bilimlarni yuzaga keltirishda axborot iste'moli madaniyatining roli kattaligini qayd etib o'tish joiz. Axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantirish esa, xulq og'ishining har qanday ko'rinishini korreksiya qilishda, xulq og'ishini yuzaga keltirmaslik uchun qilinayotgan psixoprofilaktik tadbirlarda yetarli va samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA (CONCLUSION).

Tadqiqot sinaluvchilari sifatida xulqi og'ishgan va uyushgan (normal xulq-atvorli) yoshlarning xususiyatlari tahlil qilindi. Ishning nazariy qismida og'ishgan xulq-atvorni tadqiq etishga doir zamonaviy konsepsiyalar bilan bir qatorda, Islom dinining muqaddas manbalarida og'ishgan xulq-atvorga masalasi ochib berildi, deviant xatti-harakatlarning sabablari tahlil qilindi va yoshlar muhitida deviant xatti-harakatlarning oldini olish shakllari va usullarini ko'rib chiqildi. *Birinchidan*, og'ishgan(deviant) xulq deganda ma'lum bir jamiyat tomonidan ijtimoiy va madaniy rivojlanish darajasida qabul qilingan axloqiy me'yorlardan chetga chiqadigan va sanksiyalarni keltirib chiqaradigan xatti-harakatlar tushuniladi. Deviant xatti-harakatlar ijtimoiy, axloqiy va huquqiy normalardan chetlanishda namoyon bo'ladi. Unga intizomga qarshi, ijtimoiy-axloqiy, huquqbuzarliklarga oid noqonuniy va autogressiv (o'z joniga qasd qilish va o'ziga zarar yetkazish) harakatlar kiradi.

Ikkinchidan, deviant xulq-atvorni keltirib chiqaradigan sabablar qatorida ijtimoiy-psixologik, psixologik-pedagogik, psixobiologik omillar ham mavjud. Deviant xatti-harakatlarning shakllanishiga oila, oilaviy munosabatlar, o'smir shaxsining xarakter xususiyatlari, ruhiy va jismoniy kasalliklarga moyilligi, shuningdek, ijtimoiy muhit ta'sir qiladi. Shaxsni rivojlantirish jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy xatti-harakatlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirga egadir, shuning uchun to'laqonli ta'lim va korreksion(tuzatish) ishlari bo'lmagan taqdirda, yoshlarda xarakterning "qiyinlashuvi" kuchayadi, bu esa shaxs rivojlanishida asotsiallikning yangi belgilarining paydo bo'lishi yoki mavjudlariga e'tiborsizlik darajasini oshiradi.

Tadqiqotdan olingan empirik natijalar asosida quyidagi xulosalarni qilishimiz joiz:

Birinchidan, Probatsiya xizmati ro'yxatida turuvchi xulqi og'ishgan yoshlar va uyushgan yoshlar o'rtasida ijtimoiy-psixologik so'rovnoma olinganda, deviant yoshlarning ko'pchiligi (43.2%) xulqi og'ishiga "ehtiyoblari vaqtida qondirilmagan, sabrsiz" toifadagi shaxslar moyil



bo'ladi, degan javobni tanlashgan. Salbiy illatlarni jamiyatda ko'payishiga "oilada diniy tarbiya va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro muloqotning yetishmasligi" omilini 45% xulqi og'ishgan yoshlar tanlashdi. Xulq og'ishini oldini olishda samarali vosita sifatida esa, "OAV da turli yot go'yalarga undovchi, jangari, behayo teleko'rsatuv, filmlarni namoyish etmaslik" mulohazasi 38.9% sinaluvchilar tomonidan tanlandi. Bundan xulqi og'ishgan yoshlarning axloqi buzilishida yuqoridagi omillar sabab bo'lgan degan xulosaga kelish mumkin. Olingan natijalar asosida esa, o'sib kelayotgan yoshlar tarbiyasida shu kabi omillarni hisobga olgan holda ish ko'rish lozimligi ma'lum bo'ladi.

Ikkinchidan, "Xulq og'ishiga moyillikni aniqlash" metodikasi asosida xulqi og'ishgan va uyushgan yoshlar o'rtasida yetarli yuqori, ahamiyatli farqlar aniqlandi. Xulqi og'ishgan yoshlarda ijtimoiy normalarga nisbatan salbiy ustanovkalar mavjudligi, qoida va normalarni buzishga, addiktiv xulq-atvorga, zo'ravonlik va agressiyaga, delikvent xulq-atvorga moyillik va emotsional reaksiyalarni irodaviy nazorat qila olmaslik kuzatildi. Yuqorida keltirilgan jihatlarni ijobiy tomonga muvofiqlashtirish uchun profilaktik tadbirlar sifatida ijtimoiy-psixologik treninglarni tizimli olib borish darkor.

References:

1. Александров А.А. Типология делинквентного поведения при психопатиях и акцентуациях характера / Нарушения поведения у детей и подростков.– М.: Академия, 2008. – С. 64–72.
2. Бадмаев С.А. Психологическая коррекция отклоняющегося поведения школьников / С.А.Бадмаев. – М.: Изд-во Магистр, 2009. – 186 с.
3. Бандура А., Уолтерс Г. Подростковая агрессия. – М., 2005. – 284 с.
4. Барановский Н.А. Пьянство как социальная проблема и стратегия антиалкогольной политики в Беларуси / Н.А.Барановский // Социология.– 2012. – №2.–С. 75–81.
5. Бэрн Р., Ричардсон Д. Агрессия.– СПб.: Питер, 2012. – 368 с.
6. Волков Ю.Г., Добренев В.И., Кадария Ф.Д., Савченко И.П., Шаповалов В.А. Социология молодежи: Учебное пособие. – Ростов н/Д: Феникс, 2001. – 576 с.
7. Ганнушкин П.Б. Клиника психопатий: их статистика, динамика, систематика. Некоторые общие соображения и данные // Психология индивидуальных различий / Под ред. Ю.Б.Гиппенрейтер, В.Я.Романова.– М.: Изд-во МГУ, 2005.– С. 262–267.
8. Гилинский Я. И. Девиантология: социология преступности, наркотизма, проституции, самоубийств и других отклонений – СПб.: Издательство «Юридический центр Пресс», 2004. – 520 с.
9. Девиантное поведение детей и подростков/ Под ред. Д.Н.Исаева. – М.: Академия, 2008. – 482 с.
10. Менделевич В.Д. Психология девиантного поведения/ В.Д.Менделевич. М.: Речь, 2016. – 386 с.
11. Умаров Б.М. Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари. Монография. – Тошкент, "Фан" нашриёти – 2008, 314 бет.



12. Фарфиев Б.А. Ўзбекистон ижтимоий тараққиётида ислом рационализи омили. Монография. Тошкент: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти» нашриёти, 2019. Б – 248.
13. Шоумаров Ғ., Умаров Б., Акрамова Ф. Ёшларда ҳуқуқ оғиши ва тарбия бузилинини олдини олиш бўйича психологик маслаҳатлар. – Тошкент-2015. Б – 125.